



## SONLARNI O'NLIKDAN O'TIB AYIRISH

---

*Amanova Chemen Kutlimuratovna  
 Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani  
 MMTBga 7-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Darsning ta'limi maqsadi:** Bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib ayirish. Sodda va tarkibli misol va masalalar yechich haqida bilim berish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi;** O'quvchilarga berilgan topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etish, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni ortirish.

**O'quv jarayoniga oid kompetetsiyalar:**

**TK1** matematikaga oid turli axborotlarni tinglab, ko'rib tushunish; sodda matematik matn ma'nosini so'zlab bera olish.

**TK3** o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqish.

**TK4** murakkab bo'lмаган hisoblashlarda hisoblash vositalardan foydalana olish.

**FK2** o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy masaladagi maqsadni ifodalay oladi, o'z fikrini ifodalay oladi, boshqalar fikrini tinglab, tushuna oladi.

**FK1** 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, modellarda ko'rsatib bera oladi.

**Darsning turi:** Aralash, savol-javob, o'yin

**Darsning jahozi:** a) 1-sinf «Matematika» darsligi; b) magnit taxtacha; d) mavzuga mos plakat, rasm; e) misollar yozilgan kartochkalar.

**Darsning borishi: Tashkiliy qism:**

1. O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish.

**O'tgan mavzuni mustahkamlash: Avvalo uyga vazifa**

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Kim g'olib?» o'yinini o'tkazish. O'qituvchi o'quvchilarni o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Buning uchun magnitli taxtachaga uy bilan matabning rasmi aks ettirilgan plakat, misollar yozilgan kartochkalar yopishtirib qo'yilgan bo'ladi. Aka-ukaning rasmi yopishtirib qo'yiladi.



$$10 + 1 = 11 \quad 11 + 7 = 18 \quad 18 - 8 = 10 \quad 19 + 1 = 20 \quad 10 + 10 = 20$$

$$10 + 2 = 12 \quad 12 + 5 = 17 \quad 17 + 1 = 18 \quad 18 + 2 = 20$$

Akasi uydan maktabga yuqori yo'l bilan ketdi va yo'lda misollar yozilgan kartochkalarga duch keldi. Ketma-ket misollarning javobini topib, maktabga kirib borishi kerak.

a) 10 bilan 1 ning yig'indisi 11; 11 bilan 7 ning yig'indisi 18; 18 bilan 8 ning ayirmasi 10; 10 bilan 10 ning yig'indisi 20 ekan.

Ukasi esa uydan mакtabga pastki (boshqa) yo'l bilan ketdi. Ukasi ham akasiga o'xshab yo'lda kartochkalarga yozilgan misollarga duch keldi. U ham misollarning javobini topib, mакtabga kirib borishi kerak;

b) 10 bilan 2 ning yig'indisi 12; 12 bilan 5 ning yig'indisi 17; 17 bilan 1 ning ayirmasi 16; 16 bilan 4 ning yig'indisi 20 ekan.

Ikki o'quvchini doskaga chiqarib, biringiz akasiga berilgan, ikkinchingiz ukasiga berilgan misollarning javobini topib, doskaga yozishingiz kerak, deb tushuntiriladi. Qaysi biringiz birinchi bo'lib yechsangiz, o'sha o'quvchi mакtabga birinchi bo'lib yetib kelgan bo'ladi hamda shu o'quvchini g'olib deb topiladi.

— Hasan mакtabga birinchi yetib keldimi?

— Husan birinchi yetib keldimi?

Kimni g'olib deb aystsak bo'ladi? deb o'quvchilarga murojaat etiladi.

### Yangi mavzuni bayon etish. 1- misol.



$$11 - \square$$

11 dan 6 sonini ayirish uchun 6 soni bo'laklab ayiriladi. Bu quyidagicha bajariladi: Birinchi usul. 1) Dastlab 10 hosil bo'lishi uchun 11 dan 1 sonini ayirish kerak:

$$1. \quad - 1 = 10$$

$$1. \quad 6 - \text{bu } 1 + 5 \text{ ekanligi ma'lum. } 11 \text{ dan } 1 \text{ ayi rildi, yana } 5 \text{ ni ayirish kerak.}$$

Demak,  $10 - 5 = 5$  Buni shunday yozish mumkin:

$$\begin{array}{r} 11 - 6 = 5 \quad \text{yoki} \quad 11 - 6 = 5 \\ \swarrow \quad \searrow \quad \swarrow \quad \searrow \\ 1 \quad 5 \quad \quad \quad 11 - 1 - 5 = 5 \end{array}$$

Ikkinchi usul. 11 - bu 6+5 dan iborat bo'lgani uchun misolni bunday yechish mumkin;

$$11 - 6 = 5 \quad 11 - 5 = 6 \quad \text{Qisqacha bunday yoziladi:}$$

$$\begin{array}{r} 11 - 6 = 5 \quad \quad \quad 11 - 5 = 6 \\ \swarrow \quad \searrow \quad \swarrow \quad \searrow \\ 6 \quad 5 \quad \quad \quad 5 \quad 6 \end{array}$$

**2-masalani** og'zaki va yozma ravishda bajarish.



Oziq-ovqat do‘koniga 16 quti konfet va pechenie keltirildi. Konfetlar 6 quti bo‘lsa, necha quti peche nie keltirilgan?

Qisqa shart tuzib, shu asosida masalani ishlash.

Jami – 16 quti

Konfetlar – 6 quti

Pecheniylar- ? quti.

Yechish:

$16 - 6 = 10$  (quti). Javob: 10 quti.


**3-misol.** Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘- ri bo‘lsin:

$$9 + 2 = 11 \quad 11 - 6 = 5 \quad 8 + 7 = 15$$

$$7 + 4 = 11 \quad 11 - 5 = 6 \quad 9 + 5 = 14$$

**Yangi mavzuni mustahkamlash:** 4- masala Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

- 1-likopchada – 11 ta  
2-likopchada – ?, 6 ta kam  
Yechish:  $11 - 6 = \square$  ta olma.



$$11 - 6 = 5$$

ГГ J avob: ikkinchi likopchada ta olma bor. J avob: ikkinchi likopchada 5ta olma bor.

### Darsni yakunlash.

O‘quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o‘quvchilarni rag’batlantirish, uyga vazifa berish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi 1-sinf o‘quvchilari uchun mo’ljallangan matematika fani darsliki .
2. O‘zbekiston respublikasi 1-sinf o‘qituvchilari uchun mo’ljallangan matematika fanining metodikasi